

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoiria Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Kaxarov Jasur Abulqosimovich</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Rahmonov Shuxrat Shavkatovich</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> МАНМУДХО'JA БЕЊБУДИЙ МА'РИФАТПАРВАРЛИК Г'ОЯЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ- АХЛОҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ КОНСТРУКТИВ МОЊИЯТИ	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Shonazarov Jamshid Shuxratovich</i> ЖАДИДЛАР ҲОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Ho'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржоновна*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утапов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOYIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

08.00.00-ITISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 30 July 2024

Accepted: 5 August 2024

Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

TYPES OF PARASPORTS AND THEIR LAWS

Shaira Khamidova

Doctoral student of the Institute of History

Abstract. This article describes the types of parasports included in the Paralympic program, the history of their origin, the rules and regulations of the games, the growth stages of the types of parasports over the years, as well as the participation in the games according to the functional levels of persons with disabilities engaged in the types of parasports, the principles of achievement are discussed.

Keywords. Paravelosport, parajuzdo, parafootball, rugby, outrigger, slalom, parasnowboard, kumikat, giant slalom, tandem, bicycle track, para table tennis,

PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI

Xamidova Shoira Rasulovna

Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Paralimpiya dasturiga kiritilgan parasport turlari, ularning kelib chiqish tarixi, o'yinlarning qoida va qonuniyatlari, yillar kesimida parasport turlarining o'sish bosqichlari, shuningdek, parasport turlari bilan shug'ullanuvchi nogironligi bo'lgan shaxslarning funksional darajalariga muvofiq, o'yinlarda ishtirok etishiga doir tamoyillar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Paravelosport, paradyuzdo, parafutbol, regbi, outrigger, slalom, parasnoubord, kumikat, gigant slalom, tandem, velotrek, para stol tennis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N07>

Kirish. Jamiyatda jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni parasport turlariga jalb etish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning, butun dunyo bo'ylab ko'lami oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimiz miqyosida ham. 2021-yil 5-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sport ta'limi tizimini takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[1]gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi tavsiyasiga ko'ra, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining tegishli paralimpiya sport turlari bo'limlariga yuborilayotgan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan sportchilar uchun 10 foizgacha qo'shimcha kvotalar ajratilishi, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlariga qabul kvotalari har bir sport turining xususiyatidan (vazn toifasi, sportchilar soni, shu jumladan sportchi-ayollar soni, jamoaviy sport turlari bo'yicha tegishli sport turida ishtirok etadigan sportchilar soni va boshqalar) kelib chiqib shakllantirilishi,

olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, olimpiya va milliy sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari hamda respublika oliy sport mahorati maktablari faoliyatiga davlat buyurtmasiga asosan tayyorlangan unvonli va razryadli sportchilar, sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalarning asosiy va zaxira tarkibiga kiritilgan sportchilar, Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy o'yinlari, jahon, Osiyo, O'zbekiston chempionatlari g'oliblari va sovrindorlari soniga qarab baho berilishi, paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi markazlarning moddiy-texnik bazasini qo'llab-quvvatlash va sohada zaruriy islohotlarni o'tkazishga doir vazifa va topshiriqlar belgilab berildi. Parasport turlari bilan shug'ullanuvchilar sonini va sifatini oshirish va bu jarayonda parasport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Parasport turlarining kelib chiqishi va tarixiga nazar tashlansa, mazkur sport turlari nogironlarning qiziqishi va salomatlik darajasiga qarab, tavsiya qilinib, jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash ishlari nafaqat nazariy ko'rinishda, tizimli rejalar asosida balki, amaliyotda ham o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Parasportchilarning nogironlik darajasiga ko'ra, guruhlariga ajratilishi va taqsimlangan ushbu guruhlar asosida yozgi va qishki paralimpiya o'yinlarida ishtirok etish olim va mutaxassislar tomonidan bejizga guruhlariga ajratilgan holda, ishlab chiqilmagan. Jumladan, kamida bitta a'zosi qisman yoki to'liq yo'qotilgan sportchilar ishtirok etishlari mumkin, miya bilan bog'liq shikastlanganlar guruhi, aqliy jihatdan nuqsonli sportchilar, nogironlar aravachasini talab etuvchi umurtqa pog'onasi bilan bog'liq jarohat olganlar, zaif ko'ruvchilar yohud ko'rish qobilyatida muammosi borlar, boshqa nogironlik darajalari mavjud shaxslar, o'z toifalariga binoan parasport turlari bilan shug'ullanadilar. Maqolada parasport turlari va parasportchilar faoliyati sohaga doir adabiyotlar talqini hamda, qiyosiy va xronologik tahlil metodlari asosida yoritilgan.

Muhokama. Parasport turlari ikkiga: yozgi va qishki o'yin turlariga bo'linadi. Yozgi paralimpiya o'yinlari quyidagi sport turlarini o'z ichiga oladi: golbol, "bochcha" (koptokni nishonga aniq urish); chavandozlik; kamondan o'q otish; suzish (protezlarsiz); o'q otish; akademik eshkak eshish; og'ir atletika (pauerlifting); Yelkan va velosiped sporti [2;8-b.] 2016-yildan boshlab sport turlarig, baydarkada eshkak eshish ham qo'shiladi. Yuqoridagi musobaqalarning hammasi sog'lom sportchilar uchun ishlab chiqilgan qoidalar asosida o'tkaziladi, faqat zaif ko'radigan yoki ko'zi ojiz sportchilar uchun yordamchi(boshlovchi)lar talab etiladi. Dasturga ayrim o'zgarishlar bilan dzyudo ham kiritilgan bo'lib, – unda zaif ko'radigan va ko'zi ojiz sportchilar qatnashadilar. Bu jarayonda asosiy farq "kumikata" qo'shimcha ushlashda bo'lib, kurash shundan boshlanadi. Yengil atletika bellashuvlarida esa, protezli, aravachada yuradigan va ko'zi ojiz sportchilar ishtirok etadilar, musobaqalar dasturiga turli predmetlarni uloqtirish, trassa, beshkurash, sakrash va marafon ham kiritilgan. Shuningdek, paralimpiya o'yinlarida stol tennis va katta tennis bo'yicha ham musobaqalar o'tkaziladi. Umuman, musobaqa qoidalari avvalgiday, faqat to'pning ikki marta sapchishiga ruxsat etiladi.

Paralimpiya dasturiga 1960-yildan qilichbozlik kiritilgan, aravachada yuradiganlarning kreslosi bunda polga mahkamlab qo'yiladi. Aravachada qilichbozlik musobaqalarida qatnashishdan tashqari, aravachali sportchilar, basketbol ham o'ynaydilar (savatning balandligi standartdan pastroq), 5 va 7 kishilik jamoalar bilan futbol, regbi (bu o'yin qoidalari mutlaqo o'zgartirilgan) bo'yicha kuch sinashadilar. Sportchilar ishtirok etgan sport turlari

orasida kamondan o'q otish, aravachalarda basketbol ham bor edi. Bir yil o'tgach, qatnashuvchilar soni 60 kishiga etdi, uch yil o'tgach nogironlar jamoalari sezilarli darajada ko'payib qoldi.[3; 63-b.] Yana bir parasport turi - voleybol bo'lib, o'tirib hamda turib o'ynaladigan toifalarda o'tkaziladi, shunga ko'ra, kortning o'lchami va to'rning balandligi tanlanadi. Qishki paralimpiya o'yinlari sport turlariga erkin yoki klassik chang'i poygalari (jamoaviy va yakkalik hisobi) kiritilgan. Nogironlar an'anaviy chang'ilarida, shu bilan birga, bir juft chang'isi bo'lgan kreslolarda musobaqalashadilar. Parasport turlariga shaybali xokkey sport turi ham kiritilgan bo'lib, har bir jamoadan bunda maydonga 6 tadan o'yinchi tushadi. O'yinchilar chananing sirg'aluvchi qismiga o'xshash oyoqqa o'rnatilgan aravachalarda temir uchli bo'lgan tayoqlar yordamida harakatlanadilar.[4; 8-9-bb].

Paralimpiya sport turlarining har biriga alohida to'xtaladigan bo'lsak, golbol – ushbu o'yin turi birinchi bor 1976-yil Torentodagi Paralimpiya o'yinlarida musobaqalar qatoriga kiritilgan. O'yindan maqsad har ikki jamoa raqib tomonga gol urushi kerak. O'yinda ikki jamoa bahs olib boradi. Har bir jamoada 3 kishidan o'yinchi bo'lishi kerak va ular 3 tadan zahira qatnashchilar olishlari mumkin. O'yin sport zalning to'g'ri to'rtburchak maydonida (18mx – 9m) o'tkaziladi. Darvozaning uzunligi 9 metni tashkil etib, o'yin qoidalari Xalqaro ko'rlar federatsiyasi tomonidan boshqariladi[5;6-b]. Bugungi kunda paralimpiya sportchilari erishgan yuksak ko'rsatkichlar darajasini yanada takomillashtirish uchun, hamda, golbol sport turi bo'yicha sportchilarini tayyorlashda uzoq yillardan beri qo'llanilib kelayotgan tashkiliy metodik usulni ham takomillashtirish lozim. R.S.Salomovning ko'p yillik tadqiqotlariga ko'ra, paralimpiya sport musobaqalarida oliy natijalarga erishish tobora oshib borayotganligi sababli, musobaqa faoliyati ham nihoyatda yangicha tus olib bormoqda. Bu holat imkoniyati cheklangan sportchilarning texnik-taktik va amaliy mahoratini samaradorligi, barqarorligi va ustuvorligi, ma'suliyatli startlar sharoitida axloqiy, irodaviy va ruhiy, qolaversa, integral tayyorgarlikga bo'lgan talabini ham oshirmoqda.[6;7-b]. Paralimpiya o'yinlaridagi navbatdagi para sport turi bu - Para snoubord. Ushbu sport turining uchta asosiy vazifasi mavjud: turgan holda, o'tirgan holda va ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan sportchilar o'rtasida o'tkazilinish, har bir sinfga bir xil funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan sportchilar birlashtirildi. Tasniflash tog' chang'isida ishlatiladigan me'zonlarga muvofiq amalga oshiriladi. Parasnoubordda 3 toifada o'tkazilishi va har bir ishtirokchiga mos raqib birlashtirilishi parasport turlarining diqqatga sazovor jihatlaridan biridir.

Paralimpiya o'yinlarida chang'ida yugurish – bu turdagi tanlovda paralimpiyachilar tserebral paralich, amputatsiya, (nogironlar aravachasiga muhtoj sportchilar), ko'rish qobiliyati zaif va aqliy zaif nogironlik turlari raqobatlashadi. Bu yo'nalishda o'n beshta qoida bor: uchta ko'zi ojiz nogironlar uchun, to'qqizta tik tura oladigan sportchilar uchun va uchta o'tirgan sportchilar uchun sinflar mavjud. Ma'lum sinfga mansub sportchilar imkoniyatlari darajasiga qarab, yordamchi maxsus asboblardan foydalanishga ruxsat beriladi. Jarayon chang'ichilarga o'xshash tarzda amalga oshiriladi. Paralimpiya o'yinlarida chang'ida yugurish - nogironligi bo'lgan sportchilardan davomiy mashg'ulotlar olib borish va o'z ustida ko'p ishlashni etadi. Aravachada kyoring - nogironlar aravachasida kyoring musobaqalari, kundalik hayotida aravachadan foydalanishni talab qiladigan, doimiy ravishda oyoqlari ishlamaydigan nogiron sportchilar o'rtasida o'tkaziladi. Bu sportni asosan, serebral paralich yoki kuchli skalerozli sportchilar o'ynashi mumkin. O'yinda toshni maxsus tayoq bilan tashlash mumkin. Barcha ishtirok etuvchi sportchilar nogironlar aravachasida bo'lishlari shart. Bu

sportda sinflar mavjud emas. Aravachada kyorling qoidalariga asosan, aravachalarda kyorling bo'yicha musobaqalarda qatnashish bir vaqtning o'zida jamoalar tarkibida erkaklar va ayollar ishtirok etishlari mumkin. O'yin maqsadi – toshdan “uy” deb nomlangan chizilgan markazga iloji boricha yaqinlashib olishga qaratilgan. Aravachadagi kyorling – katta mahorat va strategiya talab qiluvchi o'yin. Aravachadagi sportchilar uchun kyorling bo'yicha Jahon Kubogi 2000-yilning yanvarida Shveysariyaning Krans-Montana shahrida o'tkazildi.[7;92-b]. O'yin tavsifiga ko'ra, har bir to'rt kishidan iborat 2 jamoaning sakkiztadan toshi bor, ular galma-galdan o'z toshlarini 45*5 m o'lchamli muz maydonining qarama-qarshi tomonidagi zonasiga (“uy” deb ataladi) aniq joylashtirish bo'yicha musobaqalashadilar. Bunda jamoalarga “uy” dagi begona toshlarni surishi yoki urib chiqarganidan keyin, yoki toshlari “uy” markaziga eng yaqin bo'lsa, shu jamoa g'olib bo'ladi. O'yin “end” lardan(davrlardan) iborat bo'lib, ularning har birida g'alaba faqat, bir jamoaga nasib etadi. Barcha endlar natijalarini yig'indisi o'yinining uzil-kesil natijasini hisoblab beradi. O'yin davomiyligi – 2,5-3 soatni tashkil etadi. Kyorlingni bouling elementlari bo'lgan muz ustidagi shaxmatga qiyoslaydilar. Paraspportning qiziqarli sport turlaridan biri, bu - muz ustida xokkeydir. Muz ustida xokkey – musobaqalari faqat tanasining pastgi qismida jismoniy nogironligi bo'lgan erkaklar uchun o'tkaziladi. O'yin xokkey bo'yicha xalqaro qoidalar asosida amalga oshiriladi. Sportchilar – shaybadan foydalanish uchun maxsus xokkey tayoqchasini o'tirgan holda o'yinga kiritadi. Slalom spor turi – eng qisqa mashrutga va ko'plab eshiklarga ega. Erkaklarga 55-75 va ayollar uchun 40-60. Gigant slalomda bo'lgani singari, har bir chang'ichi bir xil burchakda turli yo'nalishlarda ikkita tushishni bajaradi. Har ikkala tushish bir kunda amalga oshiriladi. Ikki marta urinishning umumiy vaqti g'olibni aniqlaydi. Gigant slalomda burulishlar kamroq, yo'laklar keng va keskin bo'ladi. Ushbu sport turi bo'yicha nogironlarning quyidagi turkumlari raqobatlashadilar: orqamiya jarohati, miyafalaji, amputantlar va boshqa ko'rish qobiliyati zaif nogiron sportchilar qatnashishlari mumkin. U yerda o'n bitta sinf mavjud: o'tirgan holda uch nafar sportchi, turgan holda sportchilar uchun yeti nafar, uch nafar ko'rish imkoniyati cheklangan nogiron sportchilar uchun mo'ljallangan. Sportchilar nogironlarning fuksiyasi yo'qolishi darajasiga va yordamchi uskunalar ehtiyojiga qarab belgilanadi (protez, tosh, uskunalar va hokoza) lekin musobaqalar doimiy qoidalar asosida o'tkaziladi.[8; 94-b]. Para stol tennis – mazkur o'yin Paralimpiya dasturiga Rimda o'tkazilgan musobaqada kiritilgan bo'lib, 2009-yilga kelib, bu sport turi 100 dan ortiq mamlakatga tarqalgan[9; 89-b]. O'yinda barcha toifadagi nogiron sportchilar qatnasha oladi, faqat, ko'rish qobiliyati buzilganlar bundan mustasno. Erkaklar va ayollar alohida, juflikda va jamoalar tarkibida musobaqalashadilar. Paralimpiya o'yinlari dasturiga ham o'yinning shu ikki turi: alohida va jamoaviy holdagi o'yinlar kiritilgan. O'yin besh partiyadan iborat bo'lib, har biri 11 ochkogacha o'ynaladi. O'yin uchun zaruriy vositalar bo'lib, ular: stol 2,74*525 o'lchamlariga ega, balandligi esa 76 sm. Aravachada o'ynaydigan ishtirokchilar uchun stolning oyoqlari stol qirrasidan kamida 40 sm masofada joylashgan bo'lishi kerak, bu uning tagidan aravacha bemalol o'tishi uchun zarur. To'rning balandligi 15,25sm bo'lib, odatda ko'k rangli neylondan tayyorlangan bo'ladi. Stol o'rtasida tortilgan to'r ikkita teng qismga bo'lingan. Diametri 40 mm bo'lgan koptokchanning og'irligi 2.7grammni tashkil etadi. Para stol tennisida sportchilar funksional imkoniyatlariga ko'ra 10 ta sinfga bo'linadi. Raqam qancha kichik bo'lsa sportchilar harakatlari shuncha cheklangan bo'ladi. 1-5 sinflarda aravachada harakatlanadigan sportchilar, 6-10 sinflarda esa turib o'ynaydigan sportchilar musobaqalashadilar. Paraspportning o'ziga xos turlaridan yana biri: paurlifting.

Paralimpiya dasturiga ko'ra, ushbu parasport turi bo'yicha ham erkaklar, ham ayollar orasida 10 ta vazn toifada bellashadigan, barcha guruh nogironlari ishtirok eta oladigan o'yin. Pauerliftingga oid, tasnifiy talablarga taalluqli qoidalarga muvofiq musobaqalarda amputantlari hamda minimal nuqsonlari bo'lgan "boshqalar", serebrel falaj va umurtqasi shikastlangan sportchilar qatnashishi mumkin. Pauerlifting o'yinlari, jahon chempionatlari, qit'a chempionatlari va o'yinlarda har bir mamlakatdan nogironlar guruhi bo'yicha erkaklar uchun 10 vazn toifasida 10 ishtirokchining, ayollar uchun 10 vazn toifasida 10 ishtirokchining qatnashishiga ruxsat etiladi. Bu sport turidan musobaqalarda atletlar 14 yoshga to'lganidan keyingina ishtirok etishlari mumkin. Natijalar uzil-kesil hisoblanishi hakamlar eng yaxshi deb e'tirof etgan siqishga (jim)ga asoslanib, amalga oshirilishi kerak. Faqat uch urinishga ruxsat beriladi.

Musobaqadan tashqari har qanday qo'shimcha urinish final natija sifatida hisobga olinmaydi. Olimpiya o'yinlarida bo'lgani singari, dyuzdo sport turi Paralimpiya o'yinlariga ham kiritilgan. Paralimpiya dzyudosi – ko'r va zaif ko'ruvchi sportchilar uchundir. Dzyudochi muvafaqqiyatining kaliti – o'z muvozanatini saqlashi, raqibni ichki sezgi bilan jismonan yaxshi his eta olish qobiliyatida, ya'ni u ko'rlarda kuchli rivojlangan sifatlarga ega bo'lishi zarur har uchala sinf sportchilari o'z vazn toifasida bellashadilar. Paralimpiya o'yinlari dasturiga 13 vazn toifasidagi bellashuvlar kiradi. Ko'r sportchilar uchun dzyudo Xalqaro dzyudo Federatsiyasi (IJF) qoidalaridan foydalanadi, yagona farq shundaki, paralimpiyachi dzyudochilarga uchrashuv boshlanishidan avval aloqaga kirishiga ruxsat beriladi. Bellashuv - erkaklarda besh daqiqa, ayollarda to'rt daqiqani oladi. Raqibiga qaraganda yuqoriroq baholar olgan ishtirokchi g'olib deb e'lon qilinadi. Ustunlikka erishib, ochkolar to'plash uchun dzyudochi tezkor harakatlarini kuch va chaqqonlik bilan uyg'unlashtirishi lozim. Bunda asosiy vazifa - muvozanatni ushlab, raqibning tashlanishlariga tezlik bilan javob qaytarish uchun doimo xushyor holatda bo'lishdir. Ayni vaqtda sportchi raqibini muvozanatdan chiqarishga hamda texnik qabullarni qo'llashga intiladi. Hujum va qarshi hujum, shuningdek, ochko olish paytida tashlash va siqishlardan (tutib turish, bo'g'ish va og'riqli zarbalar) foydalanish juda samarali. Sport dzyudosida oyoq, qo'l, bosh bilan zarba berish man etilgan. "Ippon" - eng yuqori baho - zarbani qo'llagan kurashchini darhol g'alabaga eltadi va olishuv muddatidan avval tugaydi.

Dunyo miqyosida millionlab tomoshabinlarni jalb etuvchi sport turi hisoblanmish futbol, parasportchilar o'rtasida ham tashkil etilgan, faqat parafutbolning o'z qoida va qonuniyatlari mavjud. Para futbol - Jismoniy shikastlanishlari, aqliy rivojlanishi, ko'rish va eshitish qobiliyatlari izdan chiqqan nogironlar futbol o'ynashlari mumkin. O'yin 11 yoki 7 kishidan iborat jamoalar orasida o'tkaziladi. Oyoqlari amputatsiyalangan sportchilar o'ynaganda, qo'ltiqtayoqlardan foydalanishga yo'l qo'yiladi. O'yin samaradorligini oshirish uchun shug'ullanuvchilar qo'ltiqtayoqlarda harakatlanishning bir necha usullarini o'zlashtirishi talab etiladi. Bugungi kunda ko'plab parasportchilar shug'ullanuvchi sport turlaridan biri –paravelosport hisoblanadi. Paravelosport - 1996-yildan paralimpiya o'yinlarida shoxko'cha (shosse) poygalaridan tashqari trekdaki bellashuvlar ham o'tkaziladigan bo'ldi. 2004-yilda Afinada, qo'l uzatmali velosipedlarda (bel umurtqasi shikastlanganlar uchun) poygalar ilk bor o'tkazilishi uchun taqdim etiladigan bo'ldi. 2002-yilda nogironlar velosiped sporti Xalqaro Velosipedchilar Kengashi (ISI) tasarrufiga o'tdi. Shu vaqtdan boshlab, u juda shitob bilan rivojlanib kelayapti. 2007-yildan boshlab, musobaqalar

kengash qoidalari asosida tashkil qilinadi, IST parasaykling bo'yicha musobaqalar taqvimini, reyting ro'yxatlarini nashr ettiradi, shuningdek, rasmiy rekordlarni qayd etib boradi.

Bugungi vaqtda Xalqaro velosipedchilar kengashi parasayklingni velosport bo'yicha milliy federatsiyalar tarkibiga o'tkazishni o'zini eng muhim vazifasi deb hisoblaydi. Hozirda para-velosipedchilarning musobaqalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Velotrekdagi poygalar: Tandem, qisqa masofa – erkaklar; jamoaviy poyga, sprint – erkaklar – 500 m; vaqtli poyga – ayollar; alohida poyga; 1000 m masofaga vaqtli poyga – erkaklar va ayollar; alohida izma-iz quvllashli poyga – erkaklar va ayollar; Shohko'cha poygalari: starti ajratilgan alohida vaqtli poyga – erkaklar va ayollar; guruhli poygalar – erkaklar va ayollar kabi turlarga bo'linadi. O'yin qoidalarining ikkita asosiy vazifasi bor: 1. Sportchilarning musobaqalarda qatnashish huquqini belgilaydi. 2. Adolatli hakamlilikni ta'minlash uchun, sportchilarni toifalar bo'yicha taqsimlash imkonini beradi. 2010-yilni 1-yanvaridan kuchga kirgan yangi qoidaga ko'ra, sportchilar foydalanadigan velosipedi turiga ko'ra: 4 guruhga bo'linadilar, har bir guruhda bir nechtdan sinf mavjud, erkak va ayollar alohida jamoalarda qatnashadilar. Masalan MH1 (erkaklar) va WH1 (ayollar): qo'l uzatmali velosiped (Handbike), uch g'ildirakli velosiped (Tricycle), velosiped (Cycling), tandem (Tandem). H1 sinf, T1 sinfi, C1 sinfi, B sinfi, H2 sinfi, T2 sinfi, C2 sinfi, H3 sinfi, C3 sinfi, H4 sinfi, C4 sinfi, C5 sinfi.[10; 34-35bb]. Navbatdagi parasport turi – tog' chang'isi bo'lib, bu o'yin 1976-yilda bo'lib o'tgan birinchi qishki paralimpiya o'yinlariga kiritilgan edi. Chang'ichilar tog'larning tik yonbag'rilarida balandligi 120 dan 80mgacha tebranib turadigan qiyaliklarda tezlikni 100km/soatdan oshirishlari mumkin. Zaif ko'radigan chang'ichilar oddiy sportchilar bilan bir xil asbob anjomlardan foydalanadilar, ammo, peshqadam ishtirokida musobaqalashadilar, u ovoz chiqarib yoki radio yordamida buyruqlar berib sportchi harakat yo'nalishini ko'rsatib turadi. THA shikastlangan chang'ichilar nogironlik turiga qarab, yo oddiy anjom va protezdan foydalanadilar, yoki chang'i tayoqlari o'rniga "outrigger"larni qo'llaydilar. O'tira oladigan chang'ichilar yakka chang'ida bellashadilar, bu bitta chang'iga o'rnatilgan kursidan iborat bo'lib, qo'shimcha moslamalari tasmalar va amartizatorlari mavjud bo'ladi. Tayoq o'rnida yakka chang'ichilar ham outriggerlardan foydalanadilar. Para biatlon – biatlon tog' poygalati va aniq poylab otish bilan bajariladi va bu jismoniy chidamlilik va aniqlikni talab etadi. Musobaqalar jismoniy qobiliyati past bo'lgan va zaif ko'ruvchi sportchilar uchun o'tkaziladi. Sportchilar o'z funksiyalariga mutanosib ravishda 15 ga, nogironligi bo'lgan sportchilar uchun 12 ta, zaif ko'ruvchilar uchun esa 3 ta. Sportchilar bir-biri bilan raqobatlashadilar va natijalar har bir sinfda aniqlanadi.[11;95-95].

Natija. Para o'yinlarning ham turlari ko'p va ularning har biri o'ziga xos bo'lib, o'z shug'ullanuvchilari, qiziquvchi va tomashabinlariga ega. Aravachadagi nogironlarning bellashuvlarini aqli zaiflarning musobaqalarini, ko'rlarning yetakchi (boshlovchi) bilan yugurishini, amputantni bitta chang'ida tepalikdan tezkor tushishini yoki amputatsiya bo'lganlarning o'tirgan holatdagi yoki bosh miyasi shikastlangan sportchilarning volleybol o'yinini doimiy zavq-shavq bilan kuzatishga tomoshabinlarni nima majbur etadi? Balki, bu tomosha paytidagi estetik va emotsional kechinmalar qabul qilishning boshqa darajasida bo'lsa kerak. Nogiron – sportchi o'zining tirishqoqligi, matonati, kurashish va g'alaba shodligini his qilishdagi, ma'naviy va irodaviy kuchi bilan insonlar ongida iztirob bilan birga hayratni ham vujudga keltiradilar.[12; 101-b].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Paralimpiya sport turlarining yillar kesimida soni ortganligi, ular bilan shug'ullanuvchi shaxslar ko'payganligi, para o'yin

qoidalarining mukammalashib borganligi yuqoridagi misollar yordamida yoritib berildi. Har bir parasport turining o'z mutaxassislari, qahramonlari va albatta tomoshabinlari mavjud. Parasportchilarning bu sohadagi mehnat va mashaqqatlari o'z samara va natijalarini ko'rsatibgina qolmay, balki yurt sha'ni uchun maydonga tushgan parasportchilarning jamiyatda hurmat va mavqeini ham oshirib bormoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sport ta'limi tizimini takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//lex.uz.
2. Sh.A.Abdiyev. Paralimpiya o'yinlari tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Ilmiy-texnik axborot-press nashriyoti" T.; 2023. 8-b.
3. M.X.Mirjamolov.A.S.Yunusov.N.K.Svetlichnaya. Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. O'quv qo'llanma. T.;2015.63-b.
4. Sh.A.Abdiyev. Paralimpiya o'yinlari tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Ilmiy-texnik axborot-press nashriyoti" T.; 2023. 8-9bb.
5. L.B.Sobirova. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar bilan olib boriladigan golbol mashg'ulotlarining ilmiy-uslubiy asoslari. Monografiya. "Sport nashriyoti va sport bosmaxonasi". Chirchiq.2023. 6-b.
6. L.B.Sobirova. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar bilan olib boriladigan golbol mashg'ulotlarining ilmiy-uslubiy asoslari. Monografiya. "Sport nashriyoti va sport bosmaxonasi". Chirchiq.2023.7-bet.
7. L.B.Sobirova, M.X.Mirjamalov. Olimpiya va Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. Toshkent. 2020.92-b.
8. L.B.Sobirova, M.X.Mirjamalov. Olimpiya va Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. Toshkent. 2020. 94-b.
9. M.X.Mirjamolov.A.S.Yunusov.N.K.Svetlichnaya. Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. O'quv qo'llanma. T.;2015.89-b.
10. Sh.A.Abdiyev, E.A.O'rinboyev. Sportchilarni adaptativ sport turlariga tayyorlash texnologiyalari. Darslik. Chirchiq.; 2023. 34-35bb.
11. Sh.X.G'ofurov. Adaptativ jismoniy tarbiya va paralimpiya harakati. T.;2023. 95-96 bb.
12. X.Mirjamolov. Adaptativ jismoniy tarbiya va sport. T.; 2020-yil. 101-b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).